

**MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTOR
O'RINBOSARLARIDA AXLOQIY-MA'NAVIY SIFATLARNI
SHAKLLANTIRISH YO'LLARI**

*Qoraqalpog'iston Respublikasi Qo'ngirot
tuman 34-sonli DMTT Direktor o'rinbosari
Mirzabaeva Lazzetxan Dauletbaevna*

Annotatsiya

Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosarlarida axloqiy-ma'naviy sifatlarni shakllantirishning dolzarbligi va ahamiyati yoritilgan. Unda rahbar o'rinbosarlarning halollik, adolat, mas'uliyat, insonparvarlik, pedagogik etika, nutq madaniyati kabi muhim fazilatlarini rivojlantirish yo'llari tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Sog'lom ma'naviy muhit, ma'naviy-axloqiy fazilatlar, ma'naviy-axloqiy qiyofa, ma'naviy mafkura, ma'naviy bilim.

**WAYS OF FORMING THE SPIRITUAL QUALITIES OF DEPUTY
DIRECTORS OF PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATIONS**

Annotation

The article analyzes the spiritual and moral qualities of preschool educational organization employees on the basis of scientifically and theoretically clear proposals and recommendations. The pedagogical methods of developing the managerial skills of preschool educational organization leaders and the skills of pedagogical staff in the training process, pedagogical ethics, and spiritual qualities are substantiated.

Keywords: Healthy spiritual environment, spiritual and moral qualities, spiritual and moral image, spiritual ideology, spiritual knowledge.

Bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida ta'lim sifati va tarbiya samaradorligini oshirishda rahbar xodimlarning o'rni beqiyosdir. Ayniqsa, maktabgacha ta'lim tashkiloti direktor o'rinbosarlari pedagogik jarayonni tashkil etish, tarbiyachilar faoliyatini muvofiqlashtirish, ota-onalar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish hamda jamoada sog'lom ma'naviy muhit yaratishda muhim mas'uliyatni o'z zimmasiga oladi. Shu sababli direktor o'rinbosarlarida axloqiy-ma'naviy sifatlarni shakllantirish nafaqat shaxsiy rivojlanish, balki ta'lim muassasasining umumiy yutuqlarini ta'minlovchi asosiy omillardan biri hisoblanadi. Kelajak avlodni komil va yetuk insonlar sifatida voyaga yetkazishni o'z oldiga ustuvor maqsad qilib qo'ygan har qanday davlat, eng avvalo, maktabgacha ta'lim tizimini, xususan, maktabgacha ta'lim tashkilotlarini zamon talablari asosida modernizatsiya qilish, ularni zarur shart-

sharoitlar bilan ta'minlash hamda ta'lim-tarbiya jarayonini tubdan takomillashtirishga alohida e'tibor qaratishi lozim. Shu jihatdan, maktabgacha ta'lim sohasida dunyoning ilg'or mamlakatlari tajribalaridan samarali foydalanish, ta'lim-tarbiya sifatini oshirish va muassasalarda sog'lom ma'naviy muhitni yanada mustahkamlash dolzarb vazifalardan biri bo'lib bormoqda.

Mazkur ishlarning asosiy maqsadi farzandlarimizni har tomonlama barkamol, aqlan yetuk hamda jismonan sog'lom avlod sifatida tarbiyalashdan iboratdir. Bu vazifalarning samarali amalga oshirilishi, avvalo, maktabgacha ta'lim tashkilotlarida faoliyat yuritayotgan soha xodimlarining qat'iy irodasi, fidoyiligi, ona yurtga bo'lgan mehr-muhabbati va sadoqatiga bevosita bog'liqdir. Shu ma'noda, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ma'naviy muhitni shakllantirish, ta'lim-tarbiya jarayoniga alohida e'tibor qaratish, uni ilg'or texnika va texnologiyalar hamda zamonaviy metodlar asosida tashkil etish muhim ahamiyat kasb etadi. Eng asosiysi, maktabgacha ta'lim sohasida ko'rsatilayotgan ta'lim xizmatlarini zamon talablari darajasida yo'lga qo'ygan holda, tarbiyalanuvchi bolalarni ma'naviy jihatdan barkamol shaxs sifatida tarbiyalash jarayonini izchil davom ettirish zarur.

Bugungi davrda yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo'lgan yosh avlodni tarbiyalash maktabgacha ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlarning eng muhim harakatlantiruvchi kuchlaridan biri sanaladi. Ushbu sohada faoliyat olib borayotgan rahbarlar, pedagoglar va boshqa mutaxassislarning ma'naviy-axloqiy sifatlariga madaniyatlilik, insonparvarlik, fidoyilik, xushmuomalalik, halollik, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, mas'uliyatlilik, notiqlik, savodxonlik, qat'iyatlilik, intizomlilik hamda olijanoblik kabi fazilatlarni kiritish mumkin.

Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida mehnat faoliyatini olib borayotgan **direktor o'rinbosarlari** yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirish uchun, eng avvalo, muassasada sog'lom ma'naviy-axloqiy muhitni barqarorlashtirish va mustahkamlashga erishishlari lozim. Bu esa, o'z navbatida, rahbarlik mahoratini oshirishga alohida e'tibor qaratishni talab etadi. Chunki rahbarlik mahorati — boshqaruv san'ati sirlarini chuqur bilish, xodimlarni to'g'ri tanlash, ular bilan bog'liq murakkab va ziddiyatli vaziyatlarda oqilona yechim topa olish, o'ziga yuklatilgan mas'uliyatli yo'nalishda yuqori natijadorlikka erishish uchun jamoaning bunyodkorlik salohiyatini safarbar eta bilish, tashkilotchilik qobiliyatini amaliyotda namoyon eta olishni anglatadi.

Direktor o'rinbosarlari mahoratining muhim ko'rinishlaridan biri uning muomala madaniyatida yaqqol namoyon bo'ladi. Samimiyat, adolat, muloqotga kirishish qobiliyati, optimizm, asosiy muammo va ikkinchi darajali vazifalarni o'z vaqtida farqlay bilish, tashabbuskorlik rahbarlik salohiyatini belgilovchi omillar sanaladi. Shuningdek, uzoqni ko'ra bilish, pirovard maqsad va vazifalarni teran anglash, murakkab vaziyatlarda o'zini yo'qotmasdan noan'anaviy va kutilmagan

yechimlarni topa olish, jamoa a'zolari — pedagog va boshqa xodimlar bilan yaqin hamkorlik o'rnatib, ularning ko'ngliga yo'l topa bilish rahbarning kasbiy yetukligini ifodalaydi. Demak, jamoada chinakam rahbar ruhiy ko'tarinki kayfiyatda faoliyat olib borishi, jamoa a'zolarining quvonch va tashvishlariga hamdard bo'lib yashashi zarur. Chunki inson hayotining ko'plab unutilmas va muhim lahzalari aynan jamoa muhitida shakllanadi va tarbiyalanadi.

Bundan tashqari, rahbar notiqlik mahoratiga ega bo'lishi, fikrini tushunarli, ifodali va ta'sirchan tarzda bayon eta olishi, so'zida ishonch va da'vatkorlik ruhini namoyon qilishi muhimdir. Shuningdek, rahbarning tinglash qobiliyati ham bugungi kunda dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Bu borada nemis faylasufi A. Shopengauer: "Odamlarning siz haqingizda yaxshi fikrda bo'lishlarini istasangiz, ularni tinglang", deya ta'kidlagan. Chunki tinglash madaniyati suhbatdoshni ilhomlantiradi, ruhlantiradi va yangi g'oyalarning shakllanishiga zamin yaratadi.

Rahbarlar yuksak insoniy fazilatlarga ega bo'lishlari uchun quyidagi sifatlarni o'zida mujassam etishlari zarur:

- ochiqko'ngil, aql-zakovatli va ma'naviy yetuk bo'lish;
- o'zini tarbiyalay olgan, halol va mas'uliyatni chuqur his qiladigan shaxs bo'lish;
- bilimli, tajribali va o'z kasbining haqiqiy mutaxassisi bo'lish;
- barcha ishlari va xatti-harakatlari jamoaga ijobiy ta'sir ko'rsatishi;
- fidoyi, tashabbuskor, qat'iyatli hamda talabchan bo'lish;
- shaxsiy hayoti va xizmat faoliyati bilan boshqalarga namuna bo'la olish;
- nafs balosiga qarshi tura bilish hamda kichik rahbarlarni ham bu illatdan asrash;
- adolatsizlikka aslo yo'l qo'ymaslik;
- faoliyatida ochiqlik va oshkoralik tamoyillariga amal qilish;
- o'z g'oyasi, fikri va aniq harakat dasturiga ega bo'lish bilan birga, barcha bo'ysunuvchilarni yurt taraqqiyoti, xalq tinchligi va farovonligi yo'lida yagona maqsad atrofida birlashtira olish.

Shu bilan birga, rahbarlik faoliyatining natijadorligi uning tafakkuri va aql-idrokiga ham bevosita bog'liqdir. Tafakkur rahbarga keng va chuqur fikrlash, yaxshini yomondan, foydani zarardan, muhimni nomuhimdan aniq ajrata bilish imkonini beradi. Shu bois rahbarlik faoliyatini tafakkur va amaliy harakat uyg'unligi sifatida baholash mumkin.

Bundan tashqari, maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat olib boruvchi direktor o'rinbosarlarining ma'naviy-axloqiy qiyofasi masalasiga ham alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Chunki usiz inson insonlik martabasiga ko'tarila olmaydi. Shunday ekan, soha xodimlari ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilaydigan asosiy omillarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- intellektual salohiyat;
- mustahkam iroda;
- axloqiy-ruhiy poklik;
- yuksak e'tiqod.

Intellektual salohiyat – soha xodimlarida bilim, hayotiy tajriba, idrok hamda zehn asosida avvalo o'z aqliy salohiyatini, inson turmush tarzini turli yo'nalish va shakllarda yanada boyitish, uning yangi qirralarini ochish, mukammallashtirish imkoniyatlarining mavjudligi. O'z navbatida, intellekt – maktabgacha ta'lim tashkilotlari pedagog xodimlarining aql, idrok, zakovat, ma'naviy jihatdan yetuklik darajasini bildiradi. Ma'lumotlarga qaraganda, odam miyasidagi intellektual kuch yoki salohiyat, atom yadrosidagi beqiyos kuchga teng bo'lar ekan. Gap uni qanday rivojlantirish va qay darajada ishlata bilishda.

Iroda – soha xodimlarining ichki va tashqi intilishlari, imkoniyat va salohiyatini maqsad yo'lida safarbar etish, qat'iyat bilan harakat qilish, sinov va mashaqqatlarni yengib o'tishga, har qanday sharoitda ham ruhiy muvozanatni saqlashga asos bo'ladigan ma'naviy fazilat. Iroda orqali pedagog xodimlar o'z xohish-istaklari, xatti-harakatlarini qat'iy nazorat qilib turadi. Iroda – bu aslida mustahkam ishonch demakdir. Irodasi baquvvat odam o'ziga ishonadi va har qanday murakkab vazifani ham o'z zimmasiga olishdan qo'rqmaydi. Shuning uchun ham yuksak irodali insonga suyanish mumkin».

Poklik – ma'naviy-estetik kategoriya sifatida eng muhim ma'naviy-axloqiy talablardan biri bo'lib, samimiylik, sadoqat, ishonch va tabiiylikni o'z ichiga olgan. Poklik mazmunida oqillik va e'tiqodlilik, sharm-hayo va or-nomus, ziyraklik va farosatlilik, halollik, mehribonlik kabi ijobiy xislatlar mujassamlashgan. Ma'naviy poklik axloq ziyosidir. Unda ruh shaffofligi, sezgi tuyg'ulari yuksak.

Chunonchi, inson hayotida axloqiy poklik birinchi darajali vazifalardan sanaladi. Chunki axloqiy poklik ta'ma va molparastlikka mutlaqo zid. Donishmand xalqimiz, ishlarning poki – chiroyli va halol bajarilganida, e'tiqodlarning poki – qat'iylikda, taomlarning poki – halollikda, deb bejiz aytmagan. Demak, maktabgacha ta'lim tashkiloti rahbar va pedagog xodimlari ham o'z fe'llarini yaxshilashlari, xulqlarini poklashlari, qalblarini musaffo qilishlari ularning o'zlariga, intilishlariga bog'liq ekanligini ongli ravishda anglab yetishlari shart.

E'tiqod – muayyan maqsad, qadriyatga ishonch, shu asosda shakllangan tafakkur tarzini ifoda etuvchi tushuncha. Bilimlarning chinligi e'tiqodning mustahkam bo'lishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Ammo har qanday bilim emas, balki inson ongida qayta ishlab chiqilgan, ya'ni tajriba chig'irig'idan o'tgan, ikkinchi marta qayta hosil bo'lgan bilimlarga e'tiqodning mustahkam bo'lishini ta'minlaydi.

Shu o'rinda ma'naviy va axloqiy tarbiya tushunchalarining mohiyati haqida to'xtalib o'tishni joiz deb bilamiz.

Ma'naviy tarbiya – yuksak ma'naviyatni tarbiyalash vositasi, muayyan shaxs, jamoa, guruh, jamiyat, millatda jismoniy barkamollik, ruhiy, axloqiy, ma'naviy yetuklik kabi sifatlarni shakllantirishga qaratilgan amaliy ta'lim-tarbiya jarayonini ifodalovchi tushuncha. Insonning jamiyatda yashashi uchun zarur bo'lgan ma'naviy xususiyatlarni tarbiyalash uning eng asosiy qadriyat sifatidagi mohiyatini ta'minlaydigan qadimiy va abadiy qadriyatdir.

Axloqiy tarbiya esa jamiyat ma'naviy hayotidagi muhim ijtimoiy hodisa bo'lib, odob-axloq tizimini, axloqiy fazilatlarni zamon talablari asosida har qaysi avlod ongiga singdirish shaklidir. Axloqiy tarbiya insoniyat tarixi mobaynida ikkita muhim masalaga javob izlaydi: biri – qanday yashamoq kerak, ikkinchisi – nima qilish keragu nima qilmaslik lozim.

Bugungi kunning dolzarb masalalaridan yana biri – soha xodimlarining yot g'oyalarga qarshi tura olishidir. Bunda xodimlarning ma'naviy yetuklik, e'tiqodi darajasini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Shu munosabat bilan, ma'naviy-mafkuraviy yetuklik ko'rsatkichlarini belgilash va ularning rivojlanganlik darajasini aniqlash zarurati tug'iladi. Maxsus o'rganishlar asosida maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlarining ma'naviy bilimlarining quyidagi jihatlari ma'naviy-mafkuraviy yetuklik ko'rsatkichlari sifatida taklif etiladi:

- soha xodimlari bilimlarining to'laligi – o'z yoshi, mavqei va bugungi kun talabi doirasida ma'naviy va axloqiy tushunchalarga ega bo'lish, ularning mazmun-mohiyatini tushunish va mustaqil tarzda talqin eta olish;

- ma'naviy bilim va qarashlarning mantiqiy asoslangani – kundalik hayotdagi xulq shakllari turli muammoli vaziyatlarda to'g'ri xulosa chiqara olish va muammoni to'g'ri tahlil qila olish;

- ulardagi ma'naviy bilim va qarashlarning mustahkamligi. Bu jihatning namunadagi ko'rsatkichi bo'lib, ularda mavjud ma'naviy xislatlarini e'tiqod darajasiga yuksalganligi;

- MTT rahbar va pedagog xodimlarning ma'naviy bilimlarni amaliyligi, o'z axloqiy va ma'naviy jihatlarini nafaqat og'zaki ravishda, balki xulqida ham namoyon etishi.

Xulosa o'rnida shuni alohida ta'kidlash lozimki, maktabgacha ta'lim tashkiloti xodimlaridagi mavjud yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlar, mustahkam iroda, Vatan taqdiri uchun mas'uliyat hissini kamol toptirish, jamoada sog'lom axloqiy-ruhiy muhitni shakllantirishga qaratilgan ishlar tizimini tubdan yaxshilash va takomillashtirish maktabgacha ta'lim tashkilotida faoliyat olib borayotgan har bir rahbar va xodimlarning muhim vazifasidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi Qonuni Toshkent 2019 yil 16 dekabr.

2. Mirziyoyev SH.M. “Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti lavozimiga kirishish tantanali marosimiga bag‘ishlangan Oliy Majlis palatalarining qo‘shma majlisidagi nutqi. – T.: “O‘zbekiston”, 2016.
3. Mirziyoyev Sh.M. “Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta‘minlash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonligi garovi” mavzusidagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 24 yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. – T.: “O‘zbekiston”, 2017.
4. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak.–T.: “O‘zbekiston”. – 2017.
5. Karimov I.A. Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch. –T.: “Ma‘naviyat”, 2008.

